



O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Obidov Nodirbek

Toshkent xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0008-9952-8388
nodirbek.abidov@tiumail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda islom moliya tizimini joriy etish zarurati, mavjud huquqiy asoslar va institutsional muhit keng qamrovda o'rganiladi. Islom moliyasi shariat talablariga asoslangan holda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni ko'zda tutadi va aynan shu xususiyati uni ribo, maysir va g'arar kabi taqiqlangan elementlardan holi qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida bu yo'nalish yangi bo'lishiga qaramay, aholining diniy e'tiqodiga mos, adolatli va barqaror moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Maqolada islom moliyasining asosiy tamoyillari, sukk, mudoraba, mushoraka kabi moliyaviy vositalarning mohiyati va ularni yuritishda zarur bo'lgan huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud qonunchilikda kuzatilayotgan bo'shliqlar, regulyator organlar faoliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun mos keluvchi institutlar modeli muhokama qilinadi. Natijada, mamlakatda islom moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha konseptual takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlar, huquqiy asos, institutsional rivojlanish, sukk, islom banki, mudoraba, mushoraka, regulyator, O'zbekiston moliya bozori.

ПРАВОВЫЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Обидов Нодирбек

Ташкентский международный университет

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость внедрения системы исламских финансов в Узбекистане, а также проводится анализ существующей правовой базы и институциональной среды. Исламские финансы функционируют в соответствии с нормами шариата, исключая такие элементы, как ростовщичество (риба), азартные игры (майсир) и чрезмерная неопределенность (гарар). Несмотря на то, что исламские финансы являются новым направлением для Узбекистана, спрос на справедливые и соответствующие шариату финансовые услуги среди населения, преимущественно мусульманского, постоянно растет. В статье освещаются основные принципы исламских финансов и анализируются такие инструменты, как сукук, мудараба и мушарака. Также рассматриваются необходимые правовые механизмы для их реализации. Обсуждаются пробелы в национальном законодательстве, недостаточная развитость регулирующих органов, а также международный опыт. В заключение приводятся концептуальные предложения по созданию и устойчивому развитию исламской финансовой системы в Узбекистане.

Ключевые слова: исламские финансы, финансовые услуги, соответствующие шариату, правовая база, институциональное развитие, сукук, исламский банк, мудараба, мушарака, регуляторные органы, финансовый рынок Узбекистана.

LEGAL AND INSTITUTIONAL FRAMEWORK FOR THE INTRODUCTION OF ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, CHALLENGES AND PROSPECTS

Obidov Nodirbek

Tashkent International University

Abstract. *This article explores the necessity of introducing an Islamic finance system in Uzbekistan, as well as analyzing the current legal frameworks and institutional environment. Islamic finance operates in accordance with Sharia principles, which prohibit interest (riba), gambling (maisir), and excessive uncertainty (gharar). Although Islamic finance is a relatively new concept in Uzbekistan, the demand for fair, ethical, and Sharia-compliant financial services is steadily increasing, particularly among the predominantly Muslim population. The article examines the core principles of Islamic finance and highlights financial instruments such as sukuk, mudarabah, and musharakah. It also discusses the legal mechanisms required to implement them effectively. The existing gaps in national legislation, the insufficient development of regulatory bodies, and international best practices are assessed in the context of Uzbekistan. Finally, the article proposes conceptual recommendations to support the establishment and sustainable growth of an Islamic financial system in the country.*

Keywords: *Islamic finance, sharia-compliant financial services, legal framework, institutional development, sukuk, Islamic banking, mudarabah, musharakah, regulatory bodies, Uzbekistan financial market.*

Kirish

So'nggi yillarda jahon moliya tizimida muqobil moliyaviy vositalarga bo'lgan qiziqish keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, islom moliyasi global miqyosda iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy adolat va axloqiy tamoyillarga asoslangan barqaror moliyaviy muhit yaratishda o'ziga xos yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda (Taqi, 2007). Islom moliyasi nafaqat musulmon aholiga ega davlatlarda, balki Yevropa va Osiyodagi an'anaviy moliyaviy markazlarda ham keng tatbiq etilmoqda. Ushbu tizimning asosiy xususiyati — riba (foiz), maisir (qimor), g'arar (noaniqlik) kabi shariatda taqiqlangan elementlardan xoli moliyaviy operatsiyalarni taklif etishidir (IFSB, 2020). Bu esa uni nafaqat diniy e'tiqodga mos, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida qadrlashga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining ochiq iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida turli xil moliyaviy mexanizmlarni joriy etishga intilmoqda. Xususan, milliy kapital bozorini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish va moliyaviy xizmatlarning inklyuzivligini oshirish doirasida islomiy moliyaviy vositalarga nisbatan qiziqish kuchaymoqda. Mamlakat aholisi asosan musulmon bo'lganligi sababli, shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj tabiiy tarzda shakllanmoqda.

Biroq O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish bo'yicha amaliy harakatlar hali dastlabki bosqichda. Me'yoriy-huquqiy baza, regulyator institutlar faoliyati va iqtisodiy infratuzilma bu sohaga to'liq tayyor emas. Islomiy banklar faoliyati, sukuk emissiyasi, shariat kengashlari faoliyatini yuritish va islomiy moliyaviy vositalarning yuritilishi uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlar yetarli darajada shakllanmagan (Azizov, 2021). Bundan tashqari, islom moliyasining mohiyatini anglash va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yetarli mutaxassislar, shuningdek, ta'lim va tadqiqot bazasi ham hozircha cheklangan.

Mazkur maqola aynan ushbu muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud imkoniyatlar va cheklavlarni baholash, shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda islom moliyasini samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan huquqiy va institutsional shart-sharoitlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Islom moliyasi haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar global va mintaqaviy miqyosda keng ko'lamda olib borilmoqda. Mazkur adabiyotlar sharhi, bir tomondan, islom moliyasining nazariy asoslarini ochib beradi, ikkinchi tomondan esa, uning amaliyotda qo'llanishi va O'zbekiston sharoitida joriy etilishi uchun zarur bo'lgan huquqiy-institutsional mexanizmlarni tahlil qilishga zamin yaratadi.

Usmani (2007) islomiy moliyaning fundamental tamoyillarini bayon etar ekan, foiz (riba), noaniqlik (g'arar) va spekulatsiya (maisir) taqiqlanishi asosida moliyaviy operatsiyalarni halol yo'l bilan amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. U sukuk, mudaraba, musharaka kabi vositalarni shariatga muvofiq muqobil moliyalashtirish vositalari sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, moliyaviy halollikni ta'minlash va iqtisodiy adolat prinsiplarini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IFSB (2020) hisobotida islom moliyasining global barqarorlikka qo'shgan hissasi, regulyatorlarning roli va standartlashtirishning ahamiyati keng yoritilgan. Hisobotga ko'ra, barqaror o'sish uchun huquqiy bazaning aniqligi, shariat kengashlarining mustaqilligi va regulyator organlarning vakolati asosiy shartlardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, IFSB qoidalari islomiy moliyaviy institutlar uchun xalqaro standartlar yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Dinar Standard (2022) tomonidan chop etilgan "State of the Global Islamic Economy" hisobotida islomiy moliyaning ekologik va ijtimoiy jihatlariga ta'siri, ya'ni ESG va SDG kontekstida ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Bunda islomiy moliya nafaqat diniy muvofiqlik, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida baholanadi. Bu, ayniqsa, O'zbekiston kabi ekologik tahdidlar mavjud bo'lgan mintaqalarda dolzarbdir.

Azizov (2021) tomonidan tayyorlangan maqolada O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish yo'lidagi asosiy to'siqlar – qonunchilikdagi bo'shliqlar, moliyaviy regulyatsiya tizimining noaniqligi va professional kadrlar yetishmasligi sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, muallif amaldagi bank tizimida islomiy banklar faoliyat yuritishi uchun qonuniy asoslarning ishlab chiqilmaganligini tanqidiy tahlil qiladi.

Ernst & Young (2023) hisoboti islomiy moliya institutsiyalarining transformatsiyasi, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi va pandemiyadan keyingi davrda ularning barqarorligiga e'tibor qaratadi. Hisobotda fintech asosidagi shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarning shakllanishi yangi institutsional yondashuvlarni talab qilayotgani aytiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrda qabul qilingan qarori asosida islomiy moliya mahsulotlari bozorini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy baza yaratish va xalqaro tajribani chuqur o'rganish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilangani bu yo'nalishda siyosiy irodaning mavjudligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar asosida aytish mumkinki, islom moliyasining nazariy va amaliy asoslari xalqaro miqyosda ancha mukammal ishlab chiqilgan. Biroq O'zbekiston sharoitida ushbu bilimlar asosida samarali huquqiy va institutsional platformani yaratish uchun hali ko'plab ishlarni amalga oshirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida islom moliyasi tizimini joriy etishning huquqiy va institutsional asoslarini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, tahlil sifatida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro standartlar, ilmiy maqolalar, hukumat qarorlari hamda mavjud xalqaro amaliyotga oid hisobotlar asosiy ma'lumot manbasi sifatida tanlandi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) yondashuv qo'llanilib, kontent tahlili va qiyosiy-huquqiy tahlil metodlari asosida ilmiy xulosa chiqarildi.

Tahlil uchun quyidagi asosiy manbalar ishlatildi:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi (Masalan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun).
 - Prezident qarorlari, xususan 2022-yilda qabul qilingan islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha farmoyishlar.
 - IFSB, AAOIFI kabi xalqaro islomiy moliyaviy regulyator tashkilotlarining normativ hujjatlari va standartlari.
 - DinarStandard, EY, IMF kabi xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlari va tahliliy materiallari.
 - O'zbekistonda moliyaviy xizmatlar bozori bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar (Markaziy bank, Davlat statistika qo'mitasi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi).
- Metodologik yondashuv sifatida tadqiqotda quyidagi bosqichli tahlil usullari qo'llanildi:
- Normativ-huquqiy tahlil – amaldagi qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlar va islom moliyasi vositalarini integratsiya qilish uchun zarur o'zgartirishlar aniqlangan.
 - Qiyosiy-huquqiy yondashuv – Malayziya, BAA, Qozog'iston va Turkiya tajribasi asosida O'zbekiston sharoitida amal qilishi mumkin bo'lgan institutsional modellar tahlil qilindi.
 - Tahliliy kontent sharhi – xalqaro hisobotlar va ekspert baholaridan foydalanilgan holda sohaga oid fikrlar sintez qilindi.
 - Kontekstual yondashuv – mamlakatning iqtisodiy, demografik va dini tarkibiga mos ravishda islom moliyasini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari hisobga olindi.
- Shuningdek, maqolada empirik ma'lumotlar o'rniga huquqiy-institutsional asoslarni baholovchi nazariy tahlil ustuvorlik kasb etdi. Bu yondashuv tadqiqotning konseptual asoslarini chuqurroq ochib berish va aniq tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom moliyasi zamonaviy moliyaviy tizimning muqobil shakli bo'lib, u Qur'on oyatlari, Hadislar va fiqhiy qarorlar asosida shakllangan axloqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tamoyillarga tayangan holda faoliyat yuritadi. Uning asosiy maqsadi nafaqat moliyaviy foyda ko'rish, balki iqtisodiy adolat, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy poklikni ta'minlashdan iborat. Islom moliyasi an'anaviy kapitalistik tizimdan farqli ravishda, insoniy qadriyatlar va axloqiy normalarni moliyaviy munosabatlarga tatbiq etadi (1-jadval).

Islom moliyasi quyidagi asosiy tamoyillar asosida qurilgan bo'lib, ularning barchasi shariat normalariga to'la mos bo'lishi talab etiladi (Chapra, 2000):

1. Islom moliyasining eng muhim tamoyillaridan biri bu — har qanday foizli operatsiyalarning qat'iy man etilganligidir. Riba — bu kapital ustidan kafolatlangan daromad bo'lib, u adolatsizlikni keltirib chiqaradi va moliyaviy tizimda ekspluatatsiyaga olib kelishi mumkin (Chapra, 2000). Islom moliyasida daromad faqat real iqtisodiy faoliyat orqali olinishi lozim.
2. Bitimda ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida shart-sharoitlar aniq, shaffof va adolatli bo'lishi lozim. Shartnomalar noto'liq, noaniq yoki spekulativ xarakterga ega bo'lsa, ular shariatga zid deb topiladi. Islom moliyasi tasodifga, yutish-yo'qotish ehtimollariga asoslangan operatsiyalarni inkor etadi (Iqbal va Mirakhor, 2007).
3. Islom moliyasida moliyaviy hamkorliklar tenglik va adolat prinsiplariga asoslanadi. Foyda yoki zarar har ikki tomon uchun kelishilgan ulush asosida bo'lishi shart. Bu yondashuv iqtisodiy munosabatlarni spekulatsiyadan emas, o'zaro ishonch va halollikdan kelib chiqib shakllantiradi (El-Gamal, 2006).
4. Islom moliyasi moliyaviy faoliyatni real iqtisodiy aktivlarga bog'lashni talab qiladi. Pulning o'zi mustaqil daromad manbai bo'la olmaydi. Moliyaviy operatsiyalar ishlab chiqarish, savdo yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'langan bo'lishi shart (Siddiqi, 2006).

5. Islom moliyasi foyda olishdan tashqari, jamiyat manfaatlarini ko'zlaydi. Zakat, sadaqa va qard al-hasan kabi elementlar orqali moliyaviy resurslar ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltiriladi, kambag'allarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi (Kahf, 2004).

O'zbekiston Respublikasi moliyaviy sektorining huquqiy asoslari asosan an'anaviy, ya'ni foizli asosda ishlaydigan bank va kapital bozoriga yo'naltirilgan. Shu sababli, islom moliyasini joriy etish uchun mavjud qonunchilik bazasi cheklangan, ayrim hollarda esa to'sqinlik qiluvchi omilga aylangan.

1-jadval

Islom moliyasining asosiy tamoyillari: Tavsif, Shariat asoslari va Amaliy misollar

Tamoyil nomi	Izoh	Shariatdagi asos	Amaliy misol
Riba (foiz) taqiqlanishi	Har qanday foiz asosidagi daromad olish taqiqlanadi.	Al-Baqara 275–279 oyatlar	An'anaviy bank kreditlari o'rniga murabaha asosida tovar sotiladi: bank narsa sotib olib, foyda qo'shib xaridorga sotadi.
G'arar (noaniqlik)	Bitim shartlarining noaniqligi, xatarlar yashirinligi man etiladi.	Hadis va fuqaro-huquqiy qoidalar	Sug'urta shartnomasida kompensatsiya miqdori noma'lum bo'lsa, bu g'ararga kiradi. Islomiy sug'urta — takaful bu muammoni hal qiladi.
Maisir (qimor)	Spekulyatsiya, qimor, ehtimolga asoslangan foyda man etiladi.	Al-Ma'ida 90–91 oyatlar	Kriptovalyutalardagi spekulyativ savdolar islom moliyasida noqonuniy. Lekin "tokenization of sukuk" kabi vositalar halol hisoblanadi.
Real aktivlarga asoslanish	Bitimlar mol, yer, xizmat kabi real aktivlarga asoslangan bo'lishi shart.	Qur'on va fiqhiy qarorlar	Sukuk al-Ijara – obligatsiyalar o'rniga bino yoki uskunalarni ijaraga berish orqali foyda olinadi.
Risk va foyda taqsimoti	Foyda va zarar adolatli ulush asosida taqsimlanadi.	Musharaka, Mudaraba shartnomalari	Musharaka – ikki investor korxona tashkil qiladi, foyda va zarar ulush asosida taqsimlanadi.
Ijtimoiy adolat	Boylik teng taqsimlanishi va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsad qilingan.	At-Tauba 60 oyatlari	Qard al-Hasan – ijtimoiy zaif qatlamlarga foizsiz qarz berish, zakat orqali kambag'allarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Quyida O'zbekistondagi huquqiy muhitning islom moliyasiga nisbatan tayyorgarligi, mavjud hujjatlar va real holat tahlil qilinadi (2-jadval).

Islomiy moliyaviy xizmatlarning joriy etilishi uchun quyidagi muammolar mavjud. Bular, O'zbekistonda islomiy moliyaviy mahsulotlarning shariatga muvofiqligini baholaydigan mustaqil shariat kengashi yoki maxsus fatvo beruvchi organ yo'q. Misol uchun, sukuk chiqarishda aktivga egalik, ijara kelishuvi va foyda taqsimoti shariatga muvofiq bo'lishi lozim, biroq bu jarayonni huquqiy nazorat qiluvchi tizim mavjud emas. Mudaraba yoki musharaka kabi moliyalashtirish usullari shariatga asoslangan bo'lsa-da, O'zbekistonning amaldagi bank qonunchiligida ular rasmiy iqtisodiy shartnoma sifatida tan olinmaydi. Natijada, banklar ularni amaliyotda qo'llashda qonuniy xavf ostida qolmoqda. Hozirda O'zbekiston Markaziy banki faqat umumiy bank faoliyati uchun litsenziya beradi. Islomiy bank sifatida ro'yxatdan o'tish yoki faoliyat yuritish bo'yicha alohida me'yoriy-huquqiy asos mavjud emas. Bu esa sukuk, takaful, va mudaraba asosidagi investitsion loyihalarning joriy etilishini murakkablashtiradi.

2-jadval

Mavjud qonunchilik hujjatlarining umumiy ko'rinishi

Hujjat nomi	Islom moliyasiga tegishli jihatlar	Cheklov yoki bo'shliq
"Banklar va bank faoliyati to'g'risida" Qonun (1996, yangilangan)	Banklar faoliyati, kredit berish, depozitlar asosiy tushunchalar sifatida belgilangan.	Foizsiz moliyalashtirish, mudaraba, musharaka yoki murabaha kabi shartnomalar tilga olinmagan.
"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" Qonun (2008)	Obligatsiyalar, aksiyalar, fondlar bo'yicha bazaviy qoidalar belgilangan.	Sukuk uchun alohida maqom yo'q, real aktivlar asosidagi emissiyaga qonuniy asos yo'q.
"Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonun (2002)	Sug'urtaning shakllari, kompaniyalar faoliyati nazorat qilinadi.	Takaful – islomiy sug'urta konsepsiyasi qonunchilikda mavjud emas.

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Shunga qaramay, so'nggi yillarda hukumat tomonidan islom moliyasini joriy etishga doir bir qator dastlabki tashabbuslar ilgari surilgan. 2022-yil 12-dekabrdagi Prezident Farmonida Markaziy bank, Moliya vazirligi va Kapital bozorini rivojlantirish agentligiga islomiy moliyaviy mahsulotlarni yaratish va qonunchilik bazasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Qozog'istonning AIFC (Astana Xalqaro Moliya Markazi) bilan hamkorlikda islomiy moliyaviy huquqiy infratuzilmani o'rganish bo'yicha memorandum imzolagan (2023). Tashabbus darajasida ayrim tijorat banklari, masalan, "Kapitalbank" yoki "Asia Alliance Bank" islomiy moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqishni boshlagan. Biroq ular hali qonuniy jihatdan to'liq tan olingan emas.

Masalan, O'zbekistonda sukuk chiqarish uchun alohida qonuniy asos mavjud emas. An'anaviy obligatsiyalar bozorida faqat foizli emissiya tartibi mavjud bo'lib, sukuk — real aktiv asosida egalikni ifodalovchi moliyaviy vosita — mavjud "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunga sig'maydi. Shu sababli, potensial investitsiya loyihalari, ayniqsa infratuzilmaviy sohada, sukuk orqali moliyalashtirilmayapti. Bu esa O'zbekistonning xalqaro kapital bozorlarida islomiy investorlar bilan ishlash salohiyatini cheklaydi.

3-jadval

Xalqaro darajadagi regulyator institutlar

Tashkilot nomi	Asosiy vazifasi	Misol
IFSB – Islamic Financial Services Board	Islomiy moliyaviy muassasalar uchun prudensial standartlar va xavf nazorati tizimlarini ishlab chiqadi	2020-yilda IFSB barqarorlik bo'yicha hisobotida islomiy banklar uchun kapital yetarlilik modeli tavsiya qilingan
AAOIFI – Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions	Moliyaviy hisob-kitob va audit bo'yicha shariatga mos standartlar ishlab chiqadi	AAOIFI 58 ta moliyaviy va 26 ta shariat standartlarini tasdiqlagan bo'lib, ular global miqyosda qo'llaniladi
IOIFI – Islamic Organization for Islamic Financial Institutions	Islomiy moliya sohasidagi fatvo, ilmiy tadqiqot va konsensus uchun platforma yaratadi	Musharaka shartnomalaridagi risk taqsimoti bo'yicha xalqaro fatvolar tizimini joriy qilgan

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Islom moliyasining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi bevosita uning ustidan nazorat va muvofiqlikni ta'minlovchi regulyator institutlarning mavjudligiga bog'liq. Ushbu institutlar

islomiy moliyaviy tashkilotlar faoliyatining shariatga muvofiqligini ta'minlash, standartlarni ishlab chiqish, litsenziyalash, nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni kafolatlash funksiyalarini bajaradi. Bu bo'limda islomiy moliya sohasi uchun muhim bo'lgan regulyatorlar, ularning vazifalari va O'zbekiston sharoitida bu rolni bajaruvchi muassasalar holati tahlil qilinadi (3-jadval).

Islom moliyasining xalqaro miqyosda izchil rivojlanishi va standartlashtirilgan shaklda qo'llanilishi, ayniqsa 2000-yillardan boshlab, mustaqil regulyator institutlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Quyida

keltirilgan jadvalda uchta asosiy xalqaro institut — IFSB, AAOIFI va IOIFI — islomiy moliyaviy xizmatlarning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etishda hal qiluvchi rol o'ynayotganligi aniq ko'rinadi.

Ushbu institutlarning faoliyati orqali islomiy moliya sohasida yagona, standartlashtirilgan va shariatga muvofiq tartib-taomillar shakllanadi. O'zbekiston islom moliyasini joriy etishda bu tashkilotlarning hujjat va tavsiyalariga asoslanishi zarur.

O'zbekistonning mavjud moliyaviy regulyatorlari islom moliyasiga oid alohida standartlar ishlab chiqmagan, ularning nazorat funksiyalari asosan an'anaviy moliyaviy vositalarga yo'naltirilgan. Shuning uchun, shariatga mos moliyaviy institutlar uchun maxsus litsenziyalash, audit va shariat kengashlarining maqomini belgilash zarur (4-jadval).

4-jadval

O'zbekistonda mavjud regulyator institutlarning roli

Muassasa	Asosiy funksiyasi	Islom moliyasi bo'yicha holat
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	Pul-kredit siyosatini yuritish, banklar ustidan nazorat, litsenziyalash	Islomiy banklar yoki foizsiz moliyalashtirish uchun alohida regulyator platformasi mavjud emas
Kapital bozorini rivojlantirish agentligi	Obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va investitsiyalarni nazorat qiladi	Sukuk emissiyasi uchun qonuniy asos va tartib mavjud emas, agentlik hali bu yo'nalishda faoliyat boshlamagan
Moliya vazirligi	Moliya boshqaruvi, davlat byudjeti, fiskal nazorat	Islomiy moliyaviy mahsulotlarning byudjetga integratsiyasi masalasi ochiq qolmoqda

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda mavjud moliyaviy regulyator institutlari islomiy moliyaning maxsus talablariga javob beruvchi yondashuv va infratuzilmaga hali to'liq ega emas. Ayni paytda mavjud regulyatorlar — xususan, Markaziy bank, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi va Moliya vazirligi — faqat an'anaviy moliyaviy vositalar va operatsiyalarni tartibga solishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda islomiy moliya uchun mustaqil yoki ixtisoslashgan regulyator mavjud emas. Bu esa islomiy bank, sukuk yoki takaful mahsulotlarini rivojlantirishda huquqiy noaniqliklar va normativ bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, islomiy moliyalashtirish asoslari — mudaraba, musharaka yoki murabaha — mavjud bank qonunchiligi doirasida tan olinmaydi va regulyatsiyaga tushmaydi. Islomiy moliyaning ajralmas elementi hisoblangan Shariat kengashlari na Markaziy bank, na boshqa nazorat organlari huzurida faoliyat yuritmaydi. Bu esa islomiy moliyaviy mahsulotlar ustidan fatvo asosidagi shariat nazoratini murakkablashtiradi. Xalqaro amaliyotda esa (xususan, Malayziya, BAA) shariat kengashlari moliyaviy mahsulotlarning halollik sertifikatini taqdim etuvchi muhim institutsional vosita hisoblanadi. Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan sukukni qimmatli qog'oz sifatida e'tirof etish bo'yicha maxsus qonunchilik mavjud emas. Sukuk an'anaviy

obligatsiyalardan farqli ravishda real aktivga asoslanganligi sababli, u uchun alohida normativ baza talab etiladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hozirda sukuk instrumentlari Markaziy bank yoki Agentlik tomonidan tan olinmayapti. Islomiy banklar yoki takaful kompaniyalari uchun alohida litsenziya turi yoki faoliyat kodeksi mavjud emas. Bu esa foizsiz moliyalashtirishga asoslangan tashkilotlarning shakllanishi va ishlashida huquqiy xavf tug'diradi. Xalqaro tajribada (masalan, Bahrayn, Sudan, Saudiya Arabistoni) islomiy moliyaviy institutlar alohida litsenziya asosida faoliyat yuritadi. AAOIFI yoki IFSB tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro shariat va moliyaviy standartlar O'zbekiston qonunchiligiga integratsiya qilinmagan. Bu esa moliyaviy tashkilotlar uchun o'z faoliyatini baholashda yagona mezonlarning yo'qligiga olib kelmoqda. Natijada, islomiy moliyaviy mahsulotlar ko'rinishda mavjud bo'lishi mumkin, lekin ularning shariatga muvofiqligi kafolatlanmagan bo'ladi.

Islom moliyasining jahon bo'yicha rivojlanishi ko'plab mamlakatlarda turli institutlar, qonunchilik yondashuvlari va strategik tashabbuslar orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Qozog'iston davlatlari islom moliyasini institutsional darajada muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlar sirasiga kiradi. Ularning tajribasi O'zbekiston uchun ham amaliy model vazifasini o'tashi mumkin. Malayziya islom moliyasi bo'yicha dunyodagi eng ilg'or tizimlardan biriga ega bo'lib, bu sohani yillar davomida bosqichma-bosqich, davlat tomonidan muvofiqlashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirgan. Davlatni asosiy xususiyatlar, Markaziy bank huzurida Shariat Kengashi tashkil etilgan va barcha islomiy moliyaviy mahsulotlar ushbu kengashning fatvosi bilan tasdiqlanadi, Islomiy banklar faoliyati uchun alohida qonun (Islamic Financial Services Act, 2013) joriy etilgan bo'lib, u foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarini to'liq tartibga soladi, INCEIF (International Centre for Education in Islamic Finance) orqali kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib boriladi va Sukuk bozori bo'yicha Malayziya jahonning eng yirik emitteri hisoblanadi. 2022-yil holatiga ko'ra, global sukuk emissiyasining 22% shu davlat hissasiga to'g'ri kelgan (IFSB, 2022).

BAAda islomiy moliyaviy institutlar Dubai, Abu Dhabi va Sharja kabi alohida yurisdiksiyalarda faoliyat yuritadi. Bu hududiy erkinlik moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantiradi, ammo ularning barchasi AAOIFI va IFSB standartlariga asoslangan regulatsiyaga rioya qiladi. Davlatning asosiy yutuqlari bu, Dubai Islamic Bank dunyodagi birinchi islomiy bank sifatida 1975-yilda tashkil etilgan, Dubai International Financial Centre (DIFC) alohida yurisdiksiya sifatida sukuk, mudaraba va musharaka asosidagi investitsiyalarni taklif qiladi va shariat kengashlarini moliyaviy sektor ishtirokchilari bilan bevosita bog'lab, mahsulotni ishlab chiqishdan oldin muvofiqlik tekshiruvini talab qiladi.

5-jadval.

Taqqoslovij tahlil natijalari


Davlat	Huquqiy baza	Shariat kengashi	Kadrlar tayyorlash	Sukuk bozori
Malayziya	Maxsus qonun (IFSA 2013)	Markazlashtirilgan	INCEIF, hukumat grantlari	Juda rivojlangan
BAA	Yurisdiksiyaga bog'liq tizim	Mahalliy va federal darajada	DIFC Akademiyasi	O'rta darajada
Qozog'iston	Islom moliyasi bo'yicha qonun	AIFC shariat kengashi	Nazarboyev universitet, AIFC	Endi shakllanmoqda

1-rasmda keltirilgan radar diagramma Malayziya, BAA va Qozog'iston davlatlarida islom moliyasi infratuzilmasining to'rtta asosiy komponenti — huquqiy baza, shariat kengashlari, kadrlar tayyorlash va sukuk bozori bo'yicha rivojlanish darajasini solishtiradi. Har bir mezon bo'yicha 1 dan 5 gacha bo'lgan ball asosida baholash amalga oshirilgan.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Malayziya barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori bahoga ega. Bu davlatda islomiy moliya maxsus qonunlar, ilg'or shariat kengashlari, kuchli

ta'lim va tadqiqot muassasalari (masalan, INCEIF), shuningdek, rivojlangan sukuk bozori orqali to'liq shakllangan tizimni ifodalaydi.

BAA esa nisbatan moslashuvchan, ammo yurisdiksiya bo'yicha farqlanuvchi tizimga ega. U erda Dubai va Abu Dhabi moliyaviy markazlari o'z shariat kengashlariga va regulyator yondashuvlariga ega. Shunga qaramay, sukuk bozorining rivojlanish darajasi Malayziya bilan taqqoslaganda pastroq.



1-rasm. Islom moliyasi elementlari bo'yicha xalqaro tajriba taqqoslanishi

Qozog'istonning natijalari hali rivojlanayotgan bozor uchun xosdir. AIFC orqali qabul qilingan "Islom moliyasi to'g'risida" qonun, xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan shariat kengashi va ilk kadrlik bazaning shakllanishi ijobiy bosqich sifatida baholanadi. Biroq sukuk bozori va ta'lim tizimi hanuz to'liq shakllanmagan.

Diagramma orqali aniq ko'rinadiki, O'zbekiston ushbu tajribalarni o'rganib, o'ziga xos, milliy sharoitga mos, ammo xalqaro tajriba asosida tuzilgan islomiy moliyaviy model yaratishi mumkin (1-rasm).

O'zbekiston Respublikasida islom moliyasi tizimini joriy etish nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, balki iqtisodiy adolat, moliyaviy inklyuzivlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitida islomiy moliya sektorini shakllantirish uchun bir qator normativ, institutsional va amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi.

Birinchidan, mavjud qonunchilikka islom moliyasining asosiy tamoyillari va vositalarini integratsiya qilish zarur. Buning uchun islomiy moliya xizmatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati qabul qilinishi lozim. Bu qonun orqali foizsiz moliyalashtirish, sheriklikka asoslangan investitsiya turlari (mudaraba, musharaka), ijara va savdo asosidagi moliyalashtirish (murabaha, ijara), shuningdek sukuk va takaful kabi vositalar huquqiy jihatdan aniqlashtirilishi kerak. Shuningdek, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlarga islomiy moliyaviy mahsulotlar bilan bog'liq normalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, islom moliyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan shariatga muvofiqlik tizimini shakllantirish zarur. Bu borada Markaziy bank yoki boshqa regulyator organ huzurida Milliy shariat kengashi tashkil etilishi, shuningdek tijorat banklari va moliyaviy institutlarda ichki shariat kengashlari faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratilishi lozim. Ushbu

kengashlar shariat talablariga mos moliyaviy mahsulotlarni tasdiqlovchi, audit qiluvchi va fatvo beruvchi vakolatli organ maqomida faoliyat yuritadi.

Uchinchidan, islomiy moliyaviy institutlar — banklar, sug'urta tashkilotlari, investitsiya va lizing kompaniyalari uchun alohida litsenziyalash tartibi joriy qilinishi kerak. Bu orqali ularning faoliyati shariatga muvofiq tarzda yuritilishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, moliya sohasi xodimlari uchun islomiy moliya bo'yicha malaka oshirish dasturlari joriy etilishi, oliy ta'lim muassasalarida islom moliyasi bo'yicha magistratura va maxsus kurslar ochilishi zarur.

To'rtinchidan, amaliy jihatdan bosqichma-bosqich moliyaviy xizmatlarni joriy qilish samaradorlikni oshiradi. Jumladan, tijorat banklari tarkibida islomiy moliyalashtirish " oynasi" ni (window-based model) joriy etish orqali murabaha, mudaraba va ijara asosidagi xizmatlar taklif qilinishi mumkin. Bu tajribali kadrlar yetishmagan, qonunchilik hali to'liq shakllanmagan davrda nisbatan xavfsiz va nazorat ostidagi yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda sukuk emissiyasidan foydalanish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkin.

Beshinchidan, xalqaro islom moliyasi institutlari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali texnik yordam, tajriba almashuvi va investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlari kengaytiriladi. Xususan, O'zbekiston AAOIFI, IFSB va CIBAFI kabi tashkilotlarning a'zolicini qabul qilishi, ularning standartlarini milliy qonunchilikka moslashtirishi va moliyaviy regulyatsiya tizimiga inkorporatsiya qilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, Islom taraqqiyot banki (IsDB), ICD (Islamic Corporation for the Development of the Private Sector) va ITFC (International Islamic Trade Finance Corporation) bilan qo'shma dasturlar asosida islomiy moliya vositalari joriy etilishi mumkin.

Yuqoridagi chora-tadbirlar asosida O'zbekistonda islom moliyasi sohasida barqaror, shariatga muvofiq va xalqaro standartlarga mos infratuzilma shakllantirilishi mumkin. Bu nafaqat ichki moliyaviy barqarorlik, balki mintaqaviy hamkorlik va global investitsion ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Islom moliyasi zamonaviy global moliyaviy tizimda barqaror, adolatli va axloqiy tamoyillarga asoslangan muqobil yondashuv sifatida tobora keng tarqalmoqda. U an'anaviy foiz asosidagi moliyaviy amaliyotlardan farqli ravishda shariat me'yorlari, xususan riba, maisir va g'arar kabi taqiqlangan elementlardan xoli bo'lishi, real aktivlarga tayanishi va foyda-zararning adolatli taqsimotini ta'minlashi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada islom moliyasining asosiy prinsiplari, xizmat turlari va ular bilan bog'liq xalqaro tajribalar chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish uchun zarur bo'lgan huquqiy-institutsional baza va regulyator tizimning holati baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda islomiy moliyaviy vositalarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar to'liq shakllanmagan. Mavjud qonunchilik asosan an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlarini tartibga solishga mo'ljallangan bo'lib, mudaraba, musharaka, murabaha, sukuk va takaful kabi islomiy moliyaviy vositalar uchun aniq me'yoriy asoslar mavjud emas. Shariatga muvofiqlikni ta'minlovchi kengashlar, shuningdek foizsiz moliyalashtirish uchun alohida litsenziya tizimi yoki regulyatsiya rejimi ham shakllanmagan. Bu holat islomiy moliyaviy institutlar faoliyatining keng miqyosda rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Biroq, xalqaro tajriba — xususan Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Qozog'iston misolida — islom moliyasini samarali joriy etishning huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy modelini taklif etadi. Malayziyada Markaziy bank huzurida Shariat kengashi faoliyat yuritadi, AAOIFI va IFSB standartlari milliy qonunchilikka integratsiya qilingan. BAAda esa ko'p yurisdiksiyalik yondashuv va xususiy sektor tashabbuslari islom moliyasi innovatsiyalariga keng yo'l ochgan. Qozog'iston esa AIFC (Astana Xalqaro Moliya Markazi) orqali ingliz huquqi

elementi va islom moliyasini uyg'unlashtirgan holda, mintaqada ilg'or platformani shakllantirmoqda.

Tahlillarga asosanib, O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishda kompleks yondashuvga ehtiyoj mavjudligi aniqlanmoqda. Bunda, birinchidan, islomiy moliyaviy mahsulotlar uchun maxsus qonunchilikni ishlab chiqish; ikkinchidan, shariatga muvofiqlikni ta'minlovchi milliy kengashni tashkil etish; uchinchidan, moliyaviy institutlar uchun foizsiz faoliyat yuritish mexanizmlarini litsenziyalash va tartibga solish zarur. Shu bilan birga, sukuk, takaful, ijara va boshqa vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali milliy moliyaviy bozorni diversifikatsiya qilish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, islom moliyasining to'laqonli rivoji uchun xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, AAOIFI va IFSB kabi tashkilotlar bilan tizimli hamkorlik yo'lga qo'yish, milliy ta'lim tizimida islom moliyasi yo'nalishlarini tashkil qilish va professional kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, aholining islomiy moliyaviy savodxonligini oshirish orqali sektorning qamrovi va ishonchliligi mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, islom moliyasining O'zbekistonda joriy etilishi faqat moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiya emas, balki iqtisodiy rivojlanishda halollik, adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi keng qamrovli islohotlar zanjiri hisoblanadi. Bu jarayon mamlakat moliyaviy tizimining xalqaro integratsiyasini kuchaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda jamiyatda iqtisodiy ishonch muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Astana International Financial Centre (AIFC). (2024). *Islamic Finance Overview*. Astana: AIFC.

Azizov, S. (2021). *Islom moliyasining O'zbekistonda joriy etilishi: muammolar va istiqbollar*. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №6.

Chapra, M. U. (2000). *The Future of Economics: An Islamic Perspective*. Leicester: The Islamic Foundation.

DinarStandard. (2022). *State of the Global Islamic Economy Report 2022/23*. Salaam Gateway. <https://salaamgateway.com/special-coverage/SGIE2022>

Dubai Islamic Economy Development Centre. (2023). *State of the Global Islamic Economy Report*. Dubai: DIEDC.

El-Gamal, M. A. (2006). *Islamic Finance: Law, Economics, and Practice*. Cambridge University Press.

Ernst & Young. (2023). *Global Islamic Banking Center: Reshaping Islamic Finance for a Sustainable Future*. https://www.ey.com/en_gl/islamic-finance

IFSB (Islamic Financial Services Board). (2020). *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2020*.

International Islamic Financial Market (IIFM). (2022). *Sukuk Report: A Comprehensive Study of the Global Sukuk Market*. Manama: IIFM.

International Islamic Trade Finance Corporation (ITFC). (2024). *ITFC Annual Report 2023*. Jeddah: ITFC.

Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2007). *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. Wiley Finance.

Islamic Corporation for the Development of the Private Sector (ICD). (2023). *ICD Annual Report 2022*. Jeddah: ICD.

Islamic Development Bank (IsDB). (2023). *Annual Development Report*. Jeddah: IsDB.

Islamic Financial Services Board. (2020). *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2020*. <https://www.ifsb.org>

Islamic Financial Services Board. (2022). *Islamic Financial Services Industry Stability Report*.

Kahf, M. (2004). *Islamic Banks: The Rise of a New Power Alliance of Wealth and Shari'ah Scholarship*.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2022). *Islom moliyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami*. Toshkent: Adliya vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Islom moliyasi bozorini rivojlantirish strategiyasi*. Toshkent: Markaziy bank.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). *Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi 2025–2030*. Toshkent: Moliya vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2023). *Islom moliyasi to'g'risida Qonun loyihasi*. Toshkent: Oliy Majlis <https://parliament.gov.uz/uz/documents/1234>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Farmoyish: Islomiy moliyani joriy etish chora-tadbirlari*. <https://strategy.uz>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). *Islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-123-son qaror*.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). *2025–2030 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-210-son qaror*.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2025). *O'zbekistonning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorligi*. Toshkent: TIV.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). *Islom moliyasi xizmatlarini joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi*. Toshkent: Vazirlar Mahkamasi.

Siddiqi, M. N. (2006). *Islamic Banking and Finance in Theory and Practice: A Survey of State of the Art*. *Islamic Economic Studies*, 13(2), 1–48.

Usmani, M. T. (2007). *An Introduction to Islamic Finance*. Idaratul Ma'arif, Karachi.

Usmani, M. Taqi. (2007). *An Introduction to Islamic Finance*. Karachi: Idaratul Ma'arif.

Zawya. (2020). *Sukuk Issuance in the GCC and Beyond: A 2020 Overview*. *Zawya Islamic Finance Insights*. <https://www.ifsb.org>